TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12. 2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

CHUTBAYEVA FARIDA BOBAQULOVNA

SURXONDARYO VILOYATI HOVUZ BALIQCHILIGI SHAROITIDA BALIQ MAHSULDORLIGIGA SESTODALARNING TA'SIRI

03.00.15 – Ixtiologiya
03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

UO‘K: 597.2/.5:595.121(575.151)

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам

Contens of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on biological sciences

Chutbayeva Farida Bobaqulovna
Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida baliq mahsuldorligiga sestodalarning ta’siri ……... 3

Чутбаева Фарида Бобакуловна
Влияние цестод на продуктивность рыб в условиях прудового рыбоводства Сурхандарьинской области ……..... 21

Chutbayeva Farida Bobaqulovna
Influence of cestodes on fish productivity in pond fish farming in Surkhandarya region ……... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..……..... 45

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12. 2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

CHUTBAYEVA FARIDA BOBAQULOVNA

SURXONDARYO VILOYATI HOVUZ BALIQCHILIGI SHAROITIDA BALIQ MAHSULDORLIGIGA SESTODALARNING TA'SIRI

03.00.15 – Ixtiologiya
03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekistion Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2024.1 PhD/B1145 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o’zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tdau.uz), O’zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Safarova Feruza Ergashevna** biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Akramova Firuza Djalaliddinovna** biologiya fanlari doktori, professor
	Nazarov Muhammadrasul Sharopovich biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD. 05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil “28” 10 kuni soat 14^{00}da bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti Ma’muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).Tel: (99871) 260-48-00, faks: (99871) 260-38-60, e-mail: tuag-info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 555117 raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi 1-qavat Tel: (99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “14” 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil “14” 10dagi 12raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.R. Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

Sh.A. Abdurasulov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, v.f.d., dotsent

Q.J. Shakirov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholi sonining yuqori sur'atlarda o‘sib borishi bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xususan, baliq va baliqchilik soha mahsulotlariga bo‘lgan talabning ham ortib borishi kuzatilmoqda. « ... baliqchilik rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga bir yilda iste'mol qilinadigan baliq go‘shti o‘rtacha 25-45 kg ni tashkil etadi. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti xulosasiga ko‘ra, har bir inson bir yilda o‘rtacha 12-16 kg baliq go‘shti iste'mol qilishi lozim»[1]. Hozirgi kunda akvakulturaning turli tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lib, barcha yo‘nalishlari faoliyati baliq mahsuldorligini oshirishga qaratilgan. Biroq, invazion kasalliklar suv havzalarida katta iqtisodiy zararni keltirib chiqaradi, hamda yosh baliqlarning ko‘plab nobud bo‘lishiga olib keladi. Shunga ko‘ra, akvakultura va hovuz baliqchiligida baliqlarning invazion kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon chuchuk suv akvakulturasida, shu jumladan MDH mamlakatlarida ichki suv havzalarida xususan, hovuz baliqchiligida yangi turlarni iqlimlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali baliq mahsuldorligini oshirishga hamda hovuzlarda qat'iy parazitologik nazoratni olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Akvakulturada parazitar kasalliklar yosh baliqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ba'zan ularning yoppasiga nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Baliqlarning parazitar kasalliklari va ularning qo‘zg‘atuvchilari biologiyasini o‘rganish ularga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga hizmat qiladi. Akvakultura va hovuz baliqchiligida invazion kasalliklarning tarqalishi mahsuldorlikning pasayishiga sabab bo‘ladigan omillardan biridir. Shu sabali ham suv havzalarida epizootologik va epidemiologik vaziyatni baholash uchun parazitologik tadqiqotlarni olib borish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Respublikamizda aholini sifatli baliq va baliq mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida baliqchilikni rivojlantirishning intensiv usullari ishlab chiqilmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar natijasida muayyan yutuqlarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmonida « ... suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish» [2] kabi vazifalar belgilangan. Bu borada hovuz baliqchiligida baliqlar mahsuldorligini oshirish uchun bir qator diqqatga sazovor ishlar olib borilib, baliqlar tur soni bir necha barobarga oshirildi. Biroq, mahsuldorlikka to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri baliq kasalliklari, xususan gelmintoz kasalliklari hisoblanadi. Shu boisdan ham, hovuz baliqlarda uchraydigan gelmintozlarni o‘z vaqtida aniqlash, samarali davolash va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

[1] Yuldashov M.A., Kamilov B.G. Baliqlar ekologiyasi va atrof muhit muhofazasi. T: 2021 y.-244 b.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni

to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son «Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-son «Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005-sonli «Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-sonli «Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va 2023-yil 18-avgustdagi PQ 281-sonli «Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda ushbu yo‘nalishga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Akvakultura va hovuz baliqchiligi mahsuldorligini oshirish, hovuzlarni yangi turlar bilan boyitish hamda karpsimon baliqlar polikulturasini rivojlantirishga doir materiallar xorijlik olimlar T. Gjedrem (2005), H.H. Emeash et al. (2010), B.C. Small et al (2016), S.U Mohammad et al (2023), И.Г. Певнев (1972), Т.Г. Крылова (2015) tadqiqotlarida keltirilgan. Shuningdek, baliqlar parazitlarining turli xil guruhlarining taksonomiyasi va filogeniyasi, epidemiologik ahamiyatga ega bo‘lgan gelmint turlari to‘g‘risida D. Littlewood and R. Bray (2011), R. Poulin (2011), N.M. T. Scholz, R. Kuchta (2017), L. Juhasova et al. (2019), F. Mohammad Rahnama et al (2024), Бочарова (1996), Н.М. Пронин (1994), О.Н. Пугачев (2001), А.Н. Петухов, А.Е. Жохов (2003), М.Д. Новак, А.И. Новак (2011), Н.А. Головина (2019), О.В. Минеева, А.К. Минеев (2019), Н.И. Женихова, В.А. Шакиров (2023), Е.Л. Микулич (2023) kabi olimlar ilmiy ishlar olib borganlar.

Mamlakatimizda hovuz polikulturasi sharoitida karpsimon baliqlarni yetishtirish, yangi baliq turlarini iqlimlashtirish, hovuz baliqchiligi ob’yektlarining biologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar G.K. Kamilov (1973), A.A. Amanov va b (1990), U.T. Mirzayev (1994), M.Sh. Nazarov (1995), B.G‘. Kamilov va b (2003), M.A. Yuldashov (2019), N.R. Toshova (2023) ishlarida keltirilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda baliqlar parazitlarining tarqalishi, turlari xilma-xilligi, gelmintlarning o‘ziga xos bio-ekologik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqot ishlari O.S. Osmanov (1971), A.O. Urazboyev (1973), B.A. Allamuratov (1966, 1974), O. Yusupov (1980), A.I. Kurbonova (2002), S.B. Karimov (2007), E.B. Shakarboyev (2009), G.B. Allamuratova (2016), R. Karayev va boshqalar (2016), F.E. Safarova (2017), O.A. Abdug‘aniyev (2021), F.E. Qurbonov (2022) va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Hozirgi davrda hovuz baliqchiligi va akvakulturada baliq mahsuldorligini oshirishga hamda baliqlarning parazitar kasalliklarining tarqalishi, oldini olish va qarshi kurash chora-tadbirlariga qaratilgan tadqiqotlar sezilarli darajada

kengaygan. Ko‘pgina davlatlarda turli xil suv havzalariga yangi turlarning kiritilishi yangi patogenlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu esa parazitologik tadqiqotlarni bajarishni talab etmoqda. Surxondaryo viloyati suv havzalaridagi baliqlar mahsuldorligiga sestodalarning ta’siri, sestoda turlari xilma-xilligining hozirgi holatini aniqlash, hovuz baliqlari sestodozlari profilaktikasining ilmiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №1.1- 2021 “Xorijdan keltirilgan qishloq xo‘jaligi hayvonlarining iqlimga moslashuvchanlik, mahsuldorlik va nasldorlik sifatlari” (2021-2025 yy) mavzusidagi kafedra fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligida baliqlarining biologik xususiyatlarini, baliqlarda uchraydigan sestodalarning tur tarkibini, baliq mahsuldorligiga ta’sirini, sestodofaunaning shakllanish yo‘llarini aniqlash hamda baliqlar sestodozlari profilaktikasining ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligida baliqlarning biologik xususiyatlarini, xususan baliqlar o‘sish va rivojlanishiga sestodalarning ta’sirini o‘rganish;

baliqlar sestodalarining tur tarkibini aniqlash, taksonomik va faunistik tahlil qilish, invaziya tarqalishining yil mavsumlariga bog‘liq holda o‘rganish;

hovuz baliqchiligi sharoitida sestodalarining tabiiy serkulyasiya yo‘llari va mavsumiy dinamikasini aniqlash;

o‘rganilayotgan sestodalarning baliqlar mahsuldorligiga ta’sirini o‘rganish;

hovuz baliqchiligida sestodalariga qarshi kurashish choralari bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Surxondaryo viloyati hovuz xo‘jaliklari baliqlarining bir yillik chavoqlari, ikki-uch yillik tovar baliqlari, ota-ona nasldor baliqlar, shuningdek baliqlarda parazitlik qiluvchi sestodalar hamda ularning lichinkalik shakllari olingan.

Tadqiqotning predmetini Surxondaryo viloyati suv havzalaridagi baliqlar sestodalarining taksonomik tahlili, ekologik-faunistik tavsifi hamda ularning shakllanish yo‘llari tahlili, tajriba hovuzlari mahsuldorligi va sestodozlar profilaktikasining ilmiy asoslari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zamonaviy va umum qabul qilingan ixtiologik (baliqlarning o‘lcham va vazn ko‘rsatkichlari), gelmintologik (sestodalarning tur tarkibi, invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi), ixtioparazitologik (baliqlarni to‘liq va to‘liq bo‘lmagan parazitologik yorib ko‘rish), ekologik (abiotik va biotik omillar, suv harorati, suvda erigan kisloriod (O_2) miqdori, muhit ko‘rsatkichi (pH)) tadqiqot usullaridan, shuningdek statistik va qiyosiy tahlil (baliqlar mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili (zararlangan va sog‘lom baliqlar), hovuz baliqlarining sestodalar bilan zararlanish darajalarining

tahlili) usullaridan foydalanilgan. Barcha olingan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi St’yudent statistik usuli yordamida aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor sestodalar Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida baliqlarning biologik xususiyatlariga, xususan o‘sish va rivojlanishiga ta`siri hamda baliq mahsuldorligi pasayishi (13-15%) ilmiy asoslangan;

baliqlar sestodalarining tur tarkibi 4 ta turkum, 8 ta oila, 10 ta avlod va 14 turdan tashkil topganligi, taksonomik holati aniqlangan, sestodalar tarqalishi esa yil mavsumiga bog‘liq ekanligi ochib berilgan;

hovuz baliqlari sestodalarining tabiiy serkulyasiya yo‘llarining 4 ta usuli aniqlangan, sestodalar bilan zararlanish baliqlarning o‘stirish tig‘izligiga, suv muhiti va haroratining o‘zgarishi bilan o‘zaro bog‘liq ekanligi aniqlangan;

hovuz xo‘jaligidagi sestodalar bilan zararlangan karpsimon baliqlar vazni sog‘lom baliqqa nisbatan 330 gr, Afrika laqqasida esa 440 gr ga kam vazn olishi ilmiy asoslangan;

3 ta tajriba hovuzlari mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan 76,4 kg, 67,2 kg va 166,1 kg ga pasayganligi sestodalar ta’siriga bog‘liq ekanligi ochib berilgan.

hovuz baliqchiligi sharoitida baliqlar sestodoz kasalliklarining kelib chiqish sabablari aniqlangan hamda ularga qarshi kurashish chora - tadbirlari bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyati baliqchilik xo‘jaliklarida baliqlarda parazitlik qiladigan sestoda turlari va ularning hovuz mahsuldorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan;

baliqlarda parazitlik qiladigan sestodalarga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali sestodalar tarqalish zanjirini uzish mumkinligi ochib berilgan;

sestodalarga qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish natijasida baliqlar mahsuldorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, veterinariya-sanitariya nazoratini takomillashtirish mumkinligi ilmiy asoslangan;

Surxondayo viloyati hovuz baliqchiligida uchraydigan baliqlar sestodalariga qarshi profilaktik chora-tadbirlar bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyanoma baliqchilik fermer xo‘jaliklariga foydalanishga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan zamonaviy va klassik tadqiqot usullari hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat amaliy loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, Biostat 3.8 dasturlarida ma’lumotlarni statistik tahlil qilinganligi, dissertatsiya tadqiqoti amaliy natijalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida baliqlarning biologik xususiyatlari, baliqlarda parazitlik qiladigan sestodalarining taksonomik

tahlili, ekologik-faunistik tavsifi, baliqlar o‘sish va rivojlanish hamda mahsuldorligiga ta’siri bo‘yicha yangi ma’lumotlar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati hovuz baliqchiligi sharoitida sestodalarga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali ularning tarqalish zanjirini uzish, baliqlar mahsuldorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, veterinariya-sanitariya nazoratini takomillashtirish hamda hovuz baliqchiligidan yuqori sifatli mahsulotlar olish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida baliq mahsuldorligiga sestodalarning ta’siri mavzusida olib borilgan tadqiqot ishi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

hovuz baliqchiligida baliqlar sestodalariga qarshi kurashishda “Panafenb 22,2 foizli” preparatning 0,2 gr/kg miqdorida ozuqaga qo‘shib berish usuli Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi “Navnixol soxili” fermer xo‘jaligida joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 4-martdagi 05/05-04-84-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, zararlangan 144 dona baliqdan 117 dona baliqning hayoti saqlab qolish orqali rentabellilik darajasini 41,62 foizgacha oshirish imkoniyati yaratilgan;

baliq sestodalariga qarshi kurashishda “Monezol” preparatini 1 kg baliq vazniga 0,3 gr miqdorda ozuqasiga qo‘shib berish usuli Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi “Azizbobo” fermer xo‘jaligida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 4-martdagi 05/05-04-84-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, zararlangan 126 dona baliqdan 102 dona baliqning hayoti saqlanib qolish va rentabellilik darajasi 41,78 foizgacha oshirish imkonini bergan;

sestodalariga qarshi kurashishda “Albendozol” preparatini 1 kg baliq vazniga 0,2 gr miqdorida ozuqasiga qo‘shib berish usuli Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan “Norxamidbobo” fermer xo‘jaligida amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 4-martdagi 05/05-04-84-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, 287 dona zararlangan baliqdan 274 dona baliqning hayoti saqlab qolish rentabellilik darajasini 72,5 foizgacha oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish va 1 ta uslubiy qo‘llanma chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lib, adabiyotlar sharhi yoritilgan uning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajargan muassasaning ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarilarinig joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinishi hamda dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Hovuz baliqchiligida baliqlarda uchraydigan sestodalar va ularning baliq mahsuldorligiga ta’siri (Adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida ilgari olib borilgan tadqiqotlarning tanqidiy tahliliga, xorijiy va respublikamizda baliqlar gelmintlarini o‘rganishi taqdim qilingan, Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida baliq mahsuldorligiga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar hamda adabiyot ma’lumotlari qisqacha tahlil qilingan. Birinchi bo‘limda xorijiy olimlarning baliqlar gelmintlarini o‘rganilishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Ikkinchi bo‘limda respublikamizda baliqlarning gelmintlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot manbalari va ularni qayta ishlash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarning o‘tkazish joyi, tajriba chizmasi, tadqiqotlarda qo‘llanladigan usul va uslublar yoritilgan. Tadqiqot ishi materiallari 2022-2024 yillar davomida Surxondaryo viloyati hududida joylashgan hovuz baliqchiligi xo‘jaliklari baliqlarini gelmintologik tekshirish orqali yig‘ilgan.

To‘liq va to‘liq bo‘lmagan parazitologik yorib ko‘rish usuli orqali hovuz baliqchiligi xo‘jaliklari va tabiiy suv havzalaridagi ovlanish ahamiyatiga ega baliq turlaridan 14 turga mansub 1927 nusxadagi baliqlar tekshirilganligi keltirilgan. Tadqiqotda foydalanilgan ixtiologik va parazitologik usullar to‘liq yoritilgan.

Tadqiqot namunalarini o‘rganish davomida Olympus CK102, MBS-10, MBI-3, MBI-4 mikroskoplari, RA-4 va RA-5 apparati, elektron tarozilar, MARK-302 portativ termooksimetri, pHscan 30S-E portative pH metri kabi asboblarda shuningdek, morfometrik ma’lumotlarni statistik qayta ishlov berish BioStat 2007 va Microsoft Office Excel 2003 kompyuter dasturlari yordamida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligi asosiy obyektlari va ularning sestodalar bilan zararlanish holati”** deb nomlangan uchinchi bobida Surxondaryo viloyati hovuz baliqchilik xo‘jaliklarining asosiy obyektlari va tabiiy suv havzalarida tarqalgan baliqlar sestodalarining tur tarkibi aniqlanib, sistematik tahliliga oid tadqiqot natijalari taqdim etilgan.

Bobning birinchi bo‘limi Tadqiqotda o‘rganilgan baliq turlarining biologik xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Surxondaryo viloyatidagi hovuz baliqchiligi obyektlari hamda ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy baliq turlarining biologik xususiyatlari bayon etilgan. 4 turkum, 5 oila, 13 avlodga tegishli 14 turdagi baliqlarning biologik xususiyatlari o‘rganilgan.

Bobning ikkinchi bo‘limi “Baliqlarda aniqlangan asosiy sestoda turlarining taksonomik va faunistik tahlili”ga oid olingan natijalar bayon etilgan. Tadqiqotimiz davomida 14 turdagi, asosiy ulushi hovuz xo‘jaligi baliqlari gelmintologik tekshirildi. Tekshirilgan baliqlarda 14 tur sestodalar topildi. Ular Sestoda sinfiga mansub bo‘lib, 4 turkum, 8 oila, 10 avloddan tashkil topganligi ma’lum bo‘ldi. Surxondaryo viloyati hovuz baliqchilik xo‘jaliklari va tabiiy suv havzalaridagi ovalanadigan baliqlar va ularda uchraydigan sestodalar faunistik tahlil qilingan. Qayd etilgan turlar orasida Caryophyllaeidae va Bothriocephalidae oilasining vakillari patogen tarzda tez-tez uchrab turadi, bu esa respublikada baliqchilik sohasining rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi. Bu dalillar Suxondaryo viloyati hududi tabiiy va sun’iy suv havzalarida ixtioparazitologik vaziyat bo‘yicha doimiy monitoring olib borishni talab etadi. Hovuz baliqlarining sestodafaunasi alohida oilalarda sestodalarning soni bir xil emas (1 – rasmga qarang).

Olib borigan tadqiqot natijasida hovuz baliqlari sestodafaunasining dominant turlariga 4 ta turni (*Ligula intestinalis, Digramma interrupta, Bothriocephalus opsariichthydis va Khawia sinensis*) kiritish mumkin. Mazkur turlar ko‘pchilik suv havzalarida uchrab, invaziyaning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Dominant turlarning 2 tasi lichinkalik va yana 2 tasi voyaga yetgan holda parazitlik qiladi.

Hovuz baliqlarida sestodalar bilan zararlanish intensivligining eng yuqori ko‘rsatgichi karp balig‘ida aniqlandi, undan keyingi o‘rinda oq do‘ngpeshona bilan kumush tovon baliq. Hovuz baliqlari sestodafaunasida *Ligula intestinalis, Digramma interrupta, Bothriocephalus opsariichthydis* epizootik ahamiyatga ega turlar bo‘lib, ekologik sharoitning o‘zgarishiga qarab kasallikning keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Sestodalar bilan zararlangan xo‘jaliklarda mahsuldorlik keskin pasayib ketadi.



1-rasm. Surxondayo viloyati turli xil suv havzalarida baliqlar sestodalar jamoasining oila darajasida o‘zaro nisbati

Bobning “Zararlanish darajasining mavsumiy dinamikasi” deb nomlangan uchinchi bo‘limida hovuz baliqchiligining asosiy obyekti hisoblangan karpsimonlar vakillari, Afrika laqqasi hamda kamalakrang gul baliqlarida parazitlik qiladigan sestodalarning yil fasllariga bog‘liq holda tarqalishi tadqiqot davomida o‘rganib chiqilgan.

Tadqiqotimiz davomida viloyatning Termiz tumanidagi “Norxamid bobo”, Denov tumanidagi “Navnixol soxili”, Uzun tumanidagi “Azizbobo” hamda Qumqurg‘on tumanidagi “Marjona, Ilmira” baliqchilik xo‘jaliklari hamda shu xo‘jalilar yaqinidagi tabiiy suv havzalaridagi karp, oq do‘ngpeshona, chipor do‘ngpeshona, oq amur, kumush tovon baliq, Afrika laqqa baliqlari misolida sestodalarning mavsumiy dinamikasi o‘rganildi.

2022-2024 yillarda Surxondaryo viloyatining Termiz, Denov, Qumqurg‘on, Uzun tumanlaridagi baliqchilik hovuzlarida hamda tabiiy suv havzalarida bahor faslida baliqlar ixtioparazitologik teshiruvdan o‘tkazildi. Bahor faslida 10 apreldan boshlab har ikki haftada bir marta nazorat ovi o‘tkazilib, har bir baliq turidan kamida 15 ta nusxadagi baliqlar to‘liq va to‘liq bo‘lmagan parazitologik yorib ko‘rish usuli yordamida tekshirildi. Tekshirilgan baliqlarning asosiy qismini 1 yoshli va 2 yoshli tovar baliqlari tashkil qildi. Suv harorati ko‘tarilishi bilan sestodalarning oraliq xo‘jayini bo‘lgan zooplanktonlar, zoobentoslar ko‘paya boshlaydi. Baliqlar faol oziqlanishi natijasida sestodalarni yuqtirishi ayniqsa yoz faslida epizootik holatni yuzaga keltiradi.

Kuz faslida ham hovuz baliqlarining *Ligula intestinalis, Digramma interrupta* va *Dilepis unilateralis* sestodalari bilan zararlanib, invaziyaning ikkinchi to‘lqinini namoyon qildi. Hovuz xo‘jaliklarida baliqlar o‘rtasida sestodozlarning yuqori ko‘rsatgichi sentabr oyida ham qayd etildi.

Hovuz xo‘jaliklarida invaziyaning yuqori ko‘rsatgichi avgust oyida qayd etildi. *Ligula intestinalis, Digramma interrupta, Khawia sinensis, Bothriocephalus opsariichthydis* va *Dilepis unilateralis* kabi sestodalar bilan zararlangan baliqlar soni bir necha barobarga ortdi. Ko‘plab yosh baliqlarning nobud bo‘lishi ham aynan yoz fasliga to‘g‘ri keldi. 3-4 yoshli tovar baliqlarida ham sestodalar qayd etilib, ularda kasallik alomatlari nisbatan kam namoyon bo‘ldi. Bu baliqlar ko‘p hollarda kasallikni tashuvchi vazifasini bajarishi aniqlandi.

Bobning “Sestodalar tarqalishining baliqlar o‘stirish tig‘izligi va suvning sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limi sestodalarning tarqalishini o‘rganishda hovuz baliqchiligi obyektlari mahsuldorligiga ta’sir qiluvchi asosiy abiotik va biotik omillarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Biotik va abiotik omillarni batafsilroq tahlil qiladigan bo‘lsak, biotik omillar yetishtiriladigan baliqlar va suv havzasidagi boshqa organizmlar o‘rtasidagi turli munosabatlarni aks ettiradi. Ushbu munosabatlar bir xil tur vakillari (tur ichidagi munosabat) yoki turli turlar (turlararo munosabatlar) o‘rtasida yuzaga keladi. Ular baliq va boshqa sistematik guruhlar vakillari o‘rtasida ham paydo bo‘lishi mumkin.

Hovuzning biotik va abiotik omillarining bittasining o‘zgarishi nafaqat baliqlar balki butun suv havzasining ekologiyasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan pH – muhit ko‘rsatkichi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu

ko‘rsatkichning tushib ketishi (muhitning kislotali sharoitga o‘zgarishi) sestodalarning oraliq xo‘jayini bo‘lgan qisqichbaqalarning rivojlanishi uchun qulay sharoitni yuzaga keltiradi. Bunga misol qilib, fermer xo‘jaligida muhit ko‘rsatkichi (pH) -5,7 ga tushib ketganligi hisobiga qisqichbaqasimonlarning ko‘payib ketganligi tajribamizda kuzatildi. Suvning ishqorlik darajasini 7,0-8,0 oralig‘ida ushlash maqsadida, pH ko‘rsatkichini ko‘tarish uchun so‘ndirilgan oxakdan foydalanildi. Bunda 1-kuni 100 kg oxakni so‘ndirib, sovugach butun havza bo‘ylab sepildi. 2-kuni esa 70 kg oxakdan foydalanildi. Natijada suv muhiti ishqoriy tomonga ko‘tarilishiga erishildi.

Biotik omillar ichida baliq kasalliklari va parazitlar baliq mahsuldorligiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ba’zi hollarda baliqlarning yoppasiga qirilib ketishga va katta miqdordagi iqtisodiy zararni keltirib chiqarishi mumkin.

Abiotik omillar – Suv harorati universal va hal qiluvchi ekologik omillardan biridir. Baliq organizmlari tuzilishining o‘ziga xos xususiyati ular faoliyatining atrof muhit haroratiga bog‘liqdir.

2022-2024 yillar davomida hovuz baliqlarida sestodalar bilan zararlanish darajalari o‘rganilib, tahlil qilindi. Hovuz xo‘jaligi baliqlarining 1 yillik, 2 yillik va tovar baliqlarini bahor, yoz hamda kuz mavsumida gelmintologik tekshiruvdan o‘tkazildi.

Dissertatsiyaning **“Surxondayo viloyati hovuz baliqchiligidagi baliqlar sestodalarining tabiiy serkulyasiya yo‘llari va ularning baliqlar mahsuldorligiga ta’siri”** nomli to‘rtinchi bobida Surxondaryo viloyati baliqchilik xo‘jaliklarida baliq sestodalarining rivojlanish siklida oraliq va asosiy xo‘jayinlari hamda baliqlarning o‘sish va rivojlanishiga sestodalarning ta’siri o‘rganildi va tahlil qilindi. Sestodalarning oraliq va asosiy xo‘jayinlari tadqiqot jarayonida va adabiyot ma’lumotlaridan foydalangan holda o‘rganildi.

Bu bobning birinchi bo‘limi “Baliqlar sestodalarining biosenotik aloqalari”ga bag‘ishlangan. “Parazit-xo‘jayin” tizimida evolyutsiya jarayonida murakkab munosabatlar nafaqat parazit-tashqi muhit darajasida balki parazit-xo‘jayin darajasida ham rivojlanadi, chunki parazit uchun uning xo‘jayini birinchi tartibli yashash joyi bo‘lib hizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlarning ta’kidlashicha, parazit organizmlar yuqorida ko‘rsatilgan omillarga yuksak darajada moslashgan. Bu moslanish oxir oqibatda parazit turlari populyasiyalarining funksiyalanishini ta’minlaydi va makonda va zamonda “parazit-xo‘jayin” sistemasining barqarorligiga imkon yaratadi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar, tadqiqot olib borilgan xududlarda hovuz baliqlar sestodafaunasining shakllanishiga imkoniyat yaratadi, deb umumiy tarzda e’tirof etiladi. Buni bizning turli xil suv havzalarida hovuz baliqlari sestodafaunasi va guruhlari nisbati bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarimiz to‘lig‘icha tasdiqlaydi.

Sestodalar tabiiy serkulyasiya yo‘lining 4 ta usuli aniqlandi. Ko‘pchilik gelmintlarning sirkulyasiyasi uchun suv senozlar orasidagi trofik aloqalari orqali bajarilishi xosdir. O‘rganilayotgan Surxondaryo viloyatining suv havzalarida

sestodalarning asosiy xo‘jayini sifatida baliqlar va qushlar qatnashadi. Birinchi va ikkinchi oraliq xo‘jayinlari – umurtqasizlarning turli xillari va tuxumdan chiqqan hovuz baliqlari. Ayrim holatlarda baliqlar rezervuar xo‘jayin vazifasini bajaradi, ko‘p hollarda–asosiy xo‘jayin hisoblanadi. Umuman olganda, o‘rganiladigan baliqlardagi parazitlarning sirkulyasiya yo‘llari zamon va makonda biotik va abiotik omillarining qat’iy nazorati ostida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning mexanizmlarini aniq bilish, baliqlar parazitar kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Bobning uchinchi bo‘limi “Mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili (zararlangan va sog‘lom baliqlar)” bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtda yurtimizda karpsimon baliqlarni hovuz polikultura texnologiyasi asosida yetishtirish rivojlangan. Hovuz baliqchiligi yarim intensiv tizim sifatida faoliyat olib boradi. Bunda baliqlar hovuzlardagi tabiiy ozuqa bazasi hamda sun’iy ravishda qo‘shimcha beriladigan yemlar hisobiga oziqlantiriladi. Tabiiy suv havzalarida baliqlar o‘sishi va rivojlanishi tabiiy ozuqa bazasi hisobiga amalga oshadi. Bu ekstensiv tizim bo‘lib, baliqchilar tabiiy ozuqa bazasini rivojlanishi uchun suv havzalariga organik va mineral o‘g‘itlar solish bilan tezlashtirib turadi. Yurtimzning mavsumiy iqlim sharoitida ekstensiv tizim mahsuldorligi gektariga, 1,5-3 tonnani tashkil etadi. Bunga sabab suv hororati -12-14ºC pasaysa baliqlarning o‘sishi to‘xtaydi. Bu davr yurtimizda oktyabr oyidan aprelning o‘rtalarigacha davom etadi (Yuldashov, Kamilov, 2021).

Quyidagi sikllar yordamida hovuz baliqchiligi shakllantiriladi. Birinchi siklda nasldor ota-ona baliqlar ajratib olinib, parvarishlanadi. In’yeksiya yo‘li bilan baliq gonodalari yetiltirilib, sun’iy sharoitda inkubatsion sexda urug‘lantiriladi. Baliqlar lichinkalarini inkubatsion sex sharoitida yetishtirilib, so‘ngra o‘stirish hovuzlariga yuboriladi. Lichinkalar o‘stirish hovuzlarida mustaqil oziqlanishga o‘tishi bilan chavoq bosqichiga o‘tadi. Chavoqlar hovuzlardagi tabiiy ozuqa bazasi, avval zooplanktonlar bilan, keyinchalik zoobentos va hasharot lichinkalari bilan ham oziqlanadi. Qishdan chiqqan va vazni 25-30 g dan oshgan baliq maksimal darajada mahsuldorlikka erishgan chavoq hisoblanadi. Bu paytda baliq bir yoshni o‘tab, ikkinchi yoshga o‘tadi.

Hovuz baliqchiligining ikkinchi siklida chavoqlar o‘stirish hovuzlaridan yaylov hovuzlariga o‘tkaziladi hamda tovar baliqlarigacha yetishtiriladi. Tovar baliqlari birinchi marta jinsiy voyaga yetguncha parvarishlanadi. Bu vaqtda iste’mol qilingan ozuqa baliqlarning o‘sishi uchun sarflanadi. Ikkinchi yil oxiriga kelib tovar baliqlari (O‘zbekiston sharoitida) 500-1200 g ni tashkil qiladi.

Tadqiqot olib borilayotgan hovuz xo‘jaliklarida baliqlarning sestodoz bilan zararlanishi hovuzlarning zoogigiyenik talablarga javob bermasligi, to‘la qiymatli ozuqalar bilan oziqlantirmaslik, baliq boqilayotgan suv havzalarining odamlar nazoratidan yiroqda - daryo va tabiiy suv havzalari yaqinida joylashganligi, baliqchi qushlarning ko‘pligi hamda kasalikka qarshi profilaktik tadbirlarni rejali ravishda o‘tkazilmaganligi kabi omillar ekanligi e’tiborga olindi.

Sestodalarning oraliq xo‘jayinlari sifatida zoobentoslar (oligoxetlar) va zooplanktonlar (dafniya, siklop) ishtirok etadi. Baliq chavoqlari zooplankton va zoobentoslarni is’temol qilish orqali sestodalarni yuqtirib oladi.

1 ga hovuzda sog‘lom karp, oq do‘ngpeshona, chipor do‘ngpeshona va oq amur baliqlari har birining o‘rtacha vazni 1,4 kg ekanligini hisobga olib, 2277 dona baliqdan 3187,8 kg baliq mahsulotini olish inkoniyati aniqlangan. Lekin sestoda bilan zararlangan baliqlarning o‘rtacha vazni 1,07 kg ekanligini hisobga olib, jami baliqlarning 144 donasi zararlansa hamda 27 donasi nubud bo‘lgan holda 1 ga hovuzdan 3111,5 kg baliq mahsuloti olingan. Hovuz mahsuldorligi 76,4 kg ga pasaygaganligi o‘rganildi.

1 ga hovuzda sog‘lom karp, oq do‘ngpeshona, chipor do‘ngpeshona, oq amur va kumush tovon baliqlari har birining o‘rtacha vazni 1,4 kg ekanligini hisobga olib, 1 ga hovuzdagi sog‘lom 2265 dona baliqdan 3171 kg baliq mahsuloti olish mumkinligi aniqlangan. Biroq, sestoda bilan zararlangan baliqlarning o‘rtacha vazni 1,07 kg ekanligini hisobga olib, jami baliqlarning 126 donasi gelmint bilan zararlansa hamda 24 donasi nobud bo‘lgan holda 1 ga hovuzdan 3103,8 kg baliq yetishtirish mumkinligi aniqlangan. Hovuz mahsuldorligi 67,2 kg ga kamayganligi o‘rganildi.

0,5 ga hovuzda 9737 dona Afrika laqqasi yuqori tig‘izlikda o‘stirilib, har bir sog‘lom baliqning o‘rtacha vazni 3,5 kg tashkil qilgan holda hovuzdan 34079,5 kg baliq mahsuloti olish mumkinligi aniqlangan. Ammo sestoda bilan zararlangan 287 dona baliqdan 13 donasi nobud bo‘lgan, qolgan 274 dona baliqning o‘rtacha vazni 3,06 kg ekanligi aniqlangan. 1 ga hovuzdagi baliqlar gelmint bilan zararlanganda 33913,4 kg baliq mahsulotlari olinganligi aniqlangan. Hovuz mahsuldorligi 166,1 kg ga pasayganligi o‘rganildi.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot hududi hovuz baliqlarida uchraydigan asosiy sestodozlar va ularning profilaktikasi”** deb nomlangan beshinchi bobida Surxondaryo viloyati hovuz baliqchiligi sharoitida baliqlarda uchraydigan, keng tarqalgan sestodozlar to‘g‘risida tadqiqot natijalari keltirilgan.

